

## BIR HIKOYA XUSUSIDA MULOHAZALAR

**Yuldasheva Komila**

**Urganch Davlat Universiteti**

**“Filologiya” fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xorazmlik yozuvchi va publitsist Shuhrat Matkarimovning “Yo‘qolgan odam” nomli hikoyasi tahlil qilinadi, asarning mavzu va g‘oyasi, yozuvchi mahorati masalalariga e‘tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, o‘zlikni anglash, mavzu va g‘oya, yozuvchi mahorati, adabiy jarayon, obraz.

## CONSIDERATIONS ABOUT A STORY

**Yuldasheva Komila**

**Urgench State University**

**Student of the Faculty of Philology**

**Annotation:** This article will analyze the story of the Khorezm writer and publicist Shakhtar Matkarimov “The Lost Man”, focus on the theme and theme of the work, the skill of the writer.

**Key words:** story, minority awareness, subject and goya, writer's skills, literary process, image.

Xorazm adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri – yozuvchi, publitsist Shuhrat Matkarimdir. Adabiy jarayonda Shuhrat Matkarimning qator hikoyalari xususida iliq fikrlar aytiladi. Negaki, yozuvchi bugungi kunning muhim muammolarini, atrofimizdagi odamlarning dardu hasratlarini, ko‘ngil kechinmalarini qalamga oladi. Shuhrat Matkarim, atoqli shoir, adabiyot

tadqiqotchisi, tarjimon Matnazar Abdulhakimni ko'rish armonida bo'lgan kitobxonlarga ularning nafaqat siymosini, balki qalb ruhini ham namoyon qilib bergan, kitobxonlarni esa bevosita ular bilan suhbatdosh qila olgan va o'z shevasini ardoqlovchi ustoz ijodkordir.

Ma'kumki, hikoyachilik nasrning eng ilg'or va tezkor janri

Ijodkor o'zining "Yo'qolgan odam" hikoyasida qandaydir yo'qolgan insonni emas balki, o'zligini yo'qotgan odamni tasvirlaganiga guvoh bo'lamiz. Adibning nafrati yo'qolgan odamga nisbatan ochiqdan-ochiq, lekin yumshoq tarzda ifodalangan. Hikoya qisqagina bo'lishiga qaramay katta bir ma'suliyatni yelkasiga ortgani yaqqol seziladi. Yozuvchi xuddi rus hikoyanavisi Anton Pavlovich Chexov yoxud Abdulla Qahhor singari qisqa jummlar orqali ulkan mazmuni ochib beradi.

Yo'qolgan odam, uning ismi bor: Qalandar. Bosh qahramon bilan u tez-tez suhbatlashadi. Hatto uning maqsadi ham bor – yozuvchi bo'lmoqchi. Lekin u o'zining yozmoqchi bo'lganlarini ruschadami yoki o'zbek tilidami qay birida yozishiga o'zi ham hayron. Yo'qolgan odam o'z fikrlarini suhbatdoshiga yarim rus yarim o'zbek tillarida bayon qiladi. "-Ну-у!", "Правильно же ведь?", "-Да-а..", "Та-ак что ещё?", "Кто знает", "Жили ничего" kabi jummlar bu hikoyani o'qiyotgan kitobxon uchun qanchalik erish tuyulmasin, biroq yo'qolgan odamga ularni nutqida qo'llash odatiy holat edi. Aynan adib ham yo'qolgan odamga shuning uchun achinayotgandek.

Yozuvchi yo'qolgan odamning millatini shu tarzda bayon qiladi "Millati – mayli, o'zbek" buni o'qigan kitobxon ko'z oldida millati o'zbek bo'lgan-u biroq milliy ruhi o'zbek bo'lmagan, nainki milliy ruhi bo'lmagan odam gavdalanadi. Endilikda yozuvchi bu fikridan ham qaytadi. "U gapirayotganida sehrlanadi odam. Ehtirosi sehrlaydi kishini. Faqat ehtirosning millati yo'q. To'xtang, biz bu odamni yo'qolgan dedik-ku. Yo'q odamning millati bo'ladimi? Mana shu millatsiz odam qarshimda o'tiribdi". Yo'qolgan odam qarshisida o'tiribdi, biroq adib uni

ko‘rmaydi. Uni ko‘rishga qanchalik intilmasin, uni ko‘ra olmaydi. Aslida esa o‘zi yo‘qolmagan-u milliy ruhini yo‘qotgan insonni ko‘rishni istamaydi.

“Bu odamni yomon ko‘rib bo‘lmaydi. Achinib ham tushunish kerakdir bularni, balki?” Yo‘qolgan odam o‘z nutqida ota-onasidan erta yetim qolgani, uni qishloqdagi bir o‘ris boboy tarbiyalaganini ta’kidlab o‘tadi. Balki, achinib ham tushunish kerakdir? Ammo ota-onasining nima sababdan yosh o‘lganini so‘rab-surishtirmagan va “...kim biladi, ular bosmachimidi yoki mullamidi, eshonmidi” deya beparvogina aytib qo‘ygan hissiz odamni achinib ham tushunish mumkin emas. Kitobxonda unga nisbatan g‘ayrilik mana shu nuqtada paydo bo‘ladi. Mayli o‘z tilini bilmas, biroq ota-onasining kimligi bilan qiziqmaslik bu haqiqiy yo‘qotilgan o‘zlik va shavqatsiz his edi.

Yana hikoyada har safar bosh qahramon oldiga yo‘qolgan odam kelarkan, uning orqasida qator-qator o‘ziga o‘xshagan yuzlab, minglab, millionlab odamlar o‘tirganini his qiladi, go‘yoki ularning ovozlari bosh qahramon qulog‘i ostida aksado berardi. 1987-yilda yozilgan bu hikoyada biz tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz insonlarni ko‘rayapmiz. Hikoyada yo‘qolgan odam-ku yarim o‘zga yarim o‘zbek tilida so‘zlaydi. Biroq bugun to‘laqonli o‘zga tilda gapirayotgan butkul yo‘qolib bo‘lgan insonlar ham uchraydi. Adibning esa mana shu holatga joni achiydi. Qisqagina hikoya orqali butun bir jamiyatdagi yo‘qlikdan paydo bo‘lgan illatni ochib beradi. Hikoya qanchalik sodda bo‘lmasin, kitobxonda shunchalik murakkab tuyg‘u paydo qiladi. Yozuvchi bo‘lishdek maqsadi bor-u lekin unga nisbatan intilishi, harakati yo‘q bo‘lgan yo‘qolgan odamda bu maqsadiga to‘sqinlik qilayotgan muomma qaysi tilda yozishni bilmasligi edi. Mantiqan qaraganda u maqsadiga erishmoqchi bo‘lganida har ikkala tilda ham yozgan bo‘lardi.

Yo‘qolgan odam. Uning qo‘li qon. Chunki “Keyin, keyin – komsomol! Eh-h, u vaqtdagi komsomollar! Yoqmaganni “qars” etkazib otib ketaverardik. Не-ет что вы? Hech kim so‘ramasdi. Huquq bor edi shunday. Keyinmi? Keyin urush. Vatan Urushi...” Ulug‘ Vatan Urushi 1941-yil 22-iyun kuni tongda boshlanadi. “Keyinmi, keyin urush” deyildi, ya’nikim u vaqtdagi komsomollar deyilganda

urushdan oldingi 1936-yillar nazarda tutilmoqda, yanayam aniqrog‘i Qodiriylar, Cho‘lponlar, Usmonlar qatag‘on qilingan yillar. Qodiriyni 5-oktabr kuni otib 6-oktabrga otish qarori chiqarilgan yillar nazarda tutilmoqda. Demak Yo‘qolgan odam jabrdiydalar safida emas, jabr qilganlar safida edi, qo‘li qonga botgan komsomollar safida edi.

Qalandarning quyidagi ayanch nutqi insonni larzaga keltiradi. “Keyinmi? Keyin Urush. Vatan Urushi... Конечного. Kimga jon kerak emas. Kimning o‘lgisi keladi. Qo‘rqardik. Hamma qo‘rqar edi. Tamom vassalom. Bir kuni qochadigan bo‘ldik...” haqiqiy Vatanini sevuvchi inson “Kimga jon kerak emas” demasdan “Kimga Vatan kerak emas axir” deya Vatani uchun kurashadi. U Vatan tinchligi uchun emas, balki o‘zining omon qolishi uchun kurashadi. Yo‘qolgan odam mana shunday har tomonlama yo‘qolgan edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yozuvchi Shuhrat Matkarim inson zoti har qanday qiyinchilikka tushmasin o‘zini yo‘qotmasligi kerak deya bong urayotgandek. Hikoya insonni ogohlikka chorlabgina qolmay, yaqin o‘tmishga nazar tashlash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Shuhrat Matkarim “Kun shunday boshlanadi”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2017